

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA’SIR
MASALALARI

Sherkulov Sardor Komilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Xorijiy tillar kafedrası dotsenti, PhD

sardor_komilovich@mail.ru

Tel.:90-288-90-90

ANNOTATSIYA: *Maqolada qiyosiy adabiyotshunoslikda adabiy ta’sir, uning kelib chiqish omillari, adabiy ta’sirning tipologiyadan farqi haqida so‘z boradi. Shuningdek mumtoz adabiyotdan to hozirgi zamon adabiyotigacha bo‘lgan davrda adabiy ta’sir natijasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, adabiy ta’sir natijasida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan yangi janrlar va obrazlar misollar bilan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’sir, tipologiya, epik an‘analari, shahar odami, qishloq odami, xalq ichidan chiqqan odam, kichkina odam obrazlari.*

Dunyo xalqlari adabiyoti doimiy tarzdagi adabiy aloqalar, bir xalq madaniyati va adabiyotiga doir tajribalarni boshqa bir xalq tomonidan ijodiy o‘zlashtirilishi natijasida rivojlanadi, umumjahon miqyosiga ko‘tariladi. Sharq xalqlarining birinchi Renessansi Italiya, Ispaniya, Fransiya orqali butun Yevropa madaniyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Sharq falsafasi, ilm-fanini keng miqyosli, chuqur o‘rgangan Yevropa xalqlari bulardan o‘z uyg‘onish konsepsiyalarini belgilashda asos sifatida foydalanganlar. Natijada Yevropa XIV asrlardan boshlanib, XVII asrlarda o‘zining taraqqiyot cho‘qqisini egallagan fan-texnika, madaniyat, falsafa, adabiyot sohalari yutuqlariga erishdilar.

Adabiy ta’sir, mutaxassislar fikriga ko‘ra, quyidagi omillar asosida maydonga keladi:1) ikki yoki undan ortiq xalq o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy, adabiy aloqalar vositasida; 2) adabiyotlar o‘rtasidagi qondoshlik, muayyan genetik bog‘lanish, ma’lum etnosga mansublik asosida (mas., qardosh xalqlar adabiyoti); 3) adabiy ta’sir keng ko‘lamli va ko‘p bosqichli bo‘lishi, butun boshli adabiy davrni tashkil etishi mumkin (mas., J.J.Russo va J.G.Bayron mansub adabiy oqimlarning A.Pushkin, M.Lermontov, L.Tolstoylarga ta’siri);4) yozuvchilar o‘rtasidagi adabiy aloqaning bir turi. Bir yozuvchida mavjud syujet, obraz, mashhur motivlar yoki badiiy g‘oyalardan boshqa yozuvchining foydalanishi va h.k.[4:1].

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da: “adabiy ta’sir” terminiga: “(ruschadan kalka: литературное влияние) – adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo‘lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa. A.t. adabiy-badiiy hodisalarning zamon va makondan qat’i nazar, o‘zaro aloqada yashashi oqibati o‘laroq voqe bo‘ladi. Demak, A.t. bitta milliy adabiyot yoki adabiyotlararo aloqalar, bir davr adabiyoti yoki turli davrlar adabiyoti doirasida ham kuzatiladi. Shunga ko‘ra A.t.ning ko‘lami va darajasi turlicha (umumiy va shaxsiy) bo‘lib, ular bir qator omillarga bog‘liqdir”, deya ta’rif beriladi[3:16].

Filologiya fanlari doktori S.Melining quyidagi fikrlari tipologiya va adabiy ta’sirning o‘zaro qonuniy aloqador, real asoga ega madaniy hodisa ekanini ta’kidlashi bilan birga adabiy ta’sirning mantiqiy aniqlik chegaralarini ham belgilab olishimizga yordam beradi: “Adabiy ta’sir tipologiyaning o‘ziga xos xususiy ko‘rinishi bo‘lib, u ham badiiy hodisalardagi ma’lum o‘xshashliklar, umumiyliklar ko‘rinishida voqe bo‘ladi. Adabiy ta’sirning tipologiyadan farqli tomoni shundaki, biri ikkinchisiga ta’sir etayotgan ijodkor yoki badiiy asar vaqt, makon va mantiq jihatidan asosli bo‘lishi zarur. Aytaylik, Dantening YUusuf xos Xojib ijodiga ta’siri haqida gapirish mumkin emas, chunki “Qutadg‘u bilig” muallifi Dantedan ikki asr burun yashagan. Aksinchasi ham mumkin emas, chunki Dante “Qutadg‘u bilig” bilan tanish bo‘lishi ehtimoldan nihoyatda uzoq” [2:116].

O‘zbek va dunyo adabiyotshunosligidan yuqoridagiga yaqin yoki ma’lum farqqa ega ilmiy fikr-xulosalarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Ayni paytda ularning barchasi bir millat adabiyotining o‘zga xalqlarga nisbatan faolligi, badiiy tafakkurdagi avangardlik adabiy ta’sir uchun muhim vosita bo‘lishini alohida ta’kidlaydi. Bunda tarixiy davrdoshlik, milliy, etnik yaqinlik, geografik chegaralar asosiy rol o‘ynamaydi. Adabiyot shunday bir estetik, sirli jarayonki, u vaqt, makon, madaniyat, din, e’tiqod devorlaridan bemalol oshib o‘tib, boshqa adabiyotlarga, aniq bir yozuvchi ijodiga bemalol ta’sir o‘tkazishi, badiiyat rivojiga ulkan hissa qo‘shishi mumkin.

Bu holatni o‘zbek adabiyotining uzoq va yaqin tarixida ham bemalol kuzatishimiz tabiiy. O‘zbek mumtoz adabiyotiga arab, fors adabiyotining ta’siri natijasida o‘zbek mumtoz lirikasi, mumtoz nasrida yuksak o‘zgarishlar ro‘y bergani izohga muhtoj emas. Dastlab forsiy tilda yozilgan “Xamsa” Alisher Navoiy tomonidan turkiy tilda davom ettirilgani, xamsachilikning yuqori maqom egallagani barcha navoiyshunoslar tomonidan ta’kidlanadi. Navoiy ta’sirida dostonchilik an’analarini davom ettirgan turk, ozarbayjon, fors adabiyotidagi yangilanishlar, Navoiy an’analarining Xorazm, Qo‘qon adabiy muhitida izchil davom ettirilishi fikrimizning yorqin dalilidir. XVII asrdan e’tiboran o‘zbek adabiyotiga Abdulqodir Bedil, Muhammad Fuzuliyning ta’siri ham shu jarayonning muhim ahamiyatga molik estetik hodisa ekanini ko‘rsatadi.

XX asrda o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan yangi she’riy janrlar jadidlarning dunyo she’riyatidan ta’sirlanganiga katta dalil. Ularning o‘zlari turk, tatar, ozarbayjon, arab, fors, rus yangi adabiyotidan ijodiy ta’sirlanganlarini e’tirof etadilar. O‘zbek adabiyoti uchun mutlaqo yangilik bo‘lgan dramaturgiya ham aynan adabiy ta’sir natijasidir. Filologiya fanlari Uzoq Jo‘raqulov bu hodisaning ijtimoiy, madaniy-tarixiy, badiiy asoslarga ega ekanini o‘zining “Drama janri” nomli nazariy tadqiqotida isbotlab bergan[1:94].

XX asr boshi va o‘rtalaridagi o‘zbek nasrida A.Qodiriy, A.Cho‘lpon, Oybek, G.G‘ulom, A.Qahhorlar ijodida turk, arab, fransuz, ingliz, rus adabiyoti epik an‘analari borligini inkor etib bo‘lmaydi. Ma‘lumki, A.Qodiriy va A.Cho‘lpon dastlabkilardan bo‘lib o‘zbek romanlarini ijod etganlar. Ularning har ikkilasi rus tilini mukammal darajada bilganlari haqida ilmiy adabiyotlarda qaydlarni uchratamiz. Demak ular bu vositachi til orqali Yevropa nasri va rus adabiyoti bilan izchil tanishib borganlar. Ayni paytda ularning turk va arab tillarini ham bilganlari Sharq zamonaviy adabiyotidan ham voqif ekanlarini ko‘rsatadi. Ulardan keyingi avlod esa asosan rus tilidagi tarjimalar orqali jahon adabiyotini taniganlar. Oybek va G.G‘ulomlar nasrida rus millatiga mansub qahramonlar mavjud. A.Qahhor esa rus adabiyoti klassiklaridan bevosita ta’sirlanganini o‘zi e’tirof etadi. Masalan, A.P.Chexovni o‘zining ustozlari sifatida tilga oladi. Bu an‘ana, O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Muxtorlar ijodida ham izchil davom etdi, albatta. Ayniqsa, A.Muxtor L.Tolstoy nasri ta’sirida o‘z romanlari obrazlarini mukammallashtirgani, hatto “Chinor” romaniga L.Tolstoy obrazini ham kiritgani ma‘lum. O.Yoqubov V.Shukshin nasrida izchil uchraydigan “chudak” obrazini o‘zbekcha variantini adabiyotga olib kirdi.

Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov, U.Nazarov, O.Muxtorlar asarlarining yozilishiga ham rus adabiyoti, ruscha tarjimalar orqali dunyo adabiyotining betakror ta’siri bo‘lgani shubhasiz. Shahar odami, qishloq odami, xalq ichidan chiqqan odam, kichkina odam obrazlari, sentimental va romantik obrazlar bevosita L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, M.Sholoxov, V.Shukshin, V.Rasputin asarlarini o‘qish natijasida paydo bo‘lgan yangi obrazlar edi.

XX asarning 80-yillarida bir qator o‘zbek yozuvchilari Moskvadagi adabiyot instituti va Oliy adabiyot kursida ta’lim oldilar. Aziz Abdurazzoq, Jonrid Abdullaxonov, Murod Muhammad Do‘st, Tog‘ay Murod, Abduqahhor Ibrohimov, To‘ra Mirzolar shular jumlasidandir. Natijada nafaqat rus adabiyoti bilan, shu bilan birga Yevropa va Amerika adabiyoti namunalari bilan chuqur tanishish, ularni tarjima qilish, ijodiy o‘zlashtirish jarayoni tezlashda. Yana bir muhim tomoni, XX asrning 60-yillaridan keyin adabiyotga yangi bir epkin kirib keldi. Bu yangilikning ta’siri dastlab she’riyatda A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, R.Parfilar ijodida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, nasrda O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzaev, U.Nazarov, O‘.Umarbekov, O.Muxtor, O‘.Hoshimovlar ijodida yangi izlanishlarning maydonga kelishini ta’minladi. Sanalganlardan keyingi 80-yillar avlodi hisoblanmish E.A‘zam, X.Sulton, M.M.Do‘st, T.Murodlar, bularning izidan etishib kelgan N.Norqobilov, Sh.Bo‘taev, S.O‘nar, A.Yo‘ldosh, N.Eshonqul, Sh.Hamro, L.Bo‘rixon, T.Rustamov, U.Hamdani, I.Sultonlar nasrida esa jahon adabiyotining ta’siri yaqqol sezildi.

Sanalgan yozuvchilar ichida asosan to‘rtta xorijlik yozuvchi asarlaridan ta’sirlanish an’anasi ochiqroq ko‘zga tashlanadi. Bular: J.Joys, U.Folkner, G.G.Markes, A.Kamyular ijodi bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2015.
2. Meliyev Suvonqul (Suvon Meli). Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc.) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 110.
3. Quronov D. va boshqalar // Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. –B. 16.
4. <https://literaturologiya.academic.ru>